

"TASDIQLAYMAN"

Navoiy viloyati hokimligi
"Yagona buyurtmachi xizmati"
injiniroq kompaniyasi direktori

A. Turdiyev

2022 yil




Uchquduq tumani "Mustaqillik" MFYdagi "Mustaqillik" markaziy ko'chasining m'emoriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish

LOYIHA TOPSHIRIG'I

Buyurtmachi	Navoiy viloyati hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" IK
Loyihalash uchun asos	O'zb. Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi PQ-98-sonli qaroriga asosan 2022-yilda Navoiy viloyati tuman markazi va shaharlaridagi avtomobil yo'llarini ta'mirlash. MANZILLI dasturiga asosan
Qurilish turi	To'la ta'mirlash
Ob'ektning joylashuvi urni	Navoiy viloyati Uchquduq tumani (obekt joylashgan viloyat tuman)
Loyihashtirish bosqichi	Ishchi loyiha
Joyning tavsifi	Shahar hududi (loyihalananotgan hudud joylashuvi)
Qurilish ishlarini boshlash	2022 yil
Qurilish ishlarini tugallash	2022 yil
Yo'l muhandislik inshootlarining mavjudligi	Topografik qidiruv jarayonida aniqlangan mavjud muhandislik inshootlarini (elektr, aloqa, ichimlik suvi, kanalizatsiya tarmog'lari, eskirgan yo'l va yo'lakcha bordyurlari va b.) ko'chirib olish va qayta o'rnatish ishlari mahalliy hokimiyatning tashabbusiga asosan, tegishli tashkilotlar tomonidan o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirilsin. Ishchi loyiha tarkibiga kiritilmasin (qanday: topografik, ayronusxalar, qidiruv ishlari jarayonida aniqlanishi kursatilsin)
Loyihalananotgan yo'lning asosiy ko'rsatkichlari	Ko'chaning to'la ta'mirlanadigan qismining umumiy uzunligi- 0,62 km. Qatnov qismining kengligi – 13,0 m. qabul qilinsin. Yo'lni ta'mirlashda quyidagi ishlar ko'zda tutilsin: 1. Yo'l qatnov qismi ko'ndalang va bo'ylama kesim qiyaliklarini me'yor darajasiga keltirilsin. 2. Yo'lning qatnov qismi tegishli tomonlarga kengaytirilsin. 3. Ta'mirlanadigan qismdagi mavjud piyodalar yo'laklari a.beton qoplamali ekanligi sababli piyodalar yo'lagi mavjud bo'lmagan qismlarga yo'lning qatnov qismi o'ng va chap tomoniga kengligi har biri 1,5m.dan bo'lgan yangidan a.beton qoplamali piyodalar va velosiped yo'laklari qurilsin. 4. Sutkaning qorong'i vaqtlarida yo'l qatnov qismi, piyodalar va velosiped yo'laklarini yoritish uchun sun'iy yoritish tarmoqlari o'rnatish ko'zda tutilsin . 5. PK0+15da yangidan svetofor bilan tartibga solinadigan chorraha qurilsin. 6. Qatnov qismi chetlariga t.beton LK-6 markali suv qochirish lotoklari o'rnatilsin.
Yo'l to'shamasi	Bir qatlamli issiq asfaltobeton
Loyihashtirish uchun	Mustaqillik kuchasining va ko'cha bo'ylab quriladigan piyodalar yo'laginging

boshlang'ich ma'lumotlar	umumiy uzunligi va qiymati O'zb.Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi PQ-98_sonli qarori ijrosini joylarda ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan <i>manzilli dasturi doirasida ajratilgan mablag'larga muvofiq shakllantirilsin.</i> Asosiy qurilish materiallari va konstruksiyalarining sifati, olish manbalari, transport tashish sharoitlari, temirbeton konstruksiyalari, detallari va maxsulotlar tayyorlovchi zavod va bazalar, yuk tushirish yo'llari, yo'l qurilish materiallari karerlarning mavjudligi to'g'risida Mustaqillik ko'chasi va ko'cha bo'ylab quriladigan piyodalar yo'lagining umumiy uzunligi va qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar, loyihaning smeta hujjatlarida hisobga olinishi kerak bo'lgan ustama xarajatlar, imtiyozlar miqdori, ish hajmi, qo'shimcha yoki boshqa xarajatlarga koeffitsientlar "Buyurtmachi" tomonidan taqdim qilingan ma'lumotlarga asosan shakllantirilsin.
Loyihani davlat ekspertizasidan o'tkazish	"Buyurtmachi" tomonidan amalga oshiriladi.
Loyihalarni ishlab chiqarish tugatish muddati	Shartnomada aniqlanadi.
Qurilishni resurslar bilan ta'minlash	Mahalliy materillardan foydalanishga ustuvorlik berilib ishchi loyihada aniqlanadi.
Tabiiy atrof-muhit muhofazasiga talablari	Me'yoriy hujjatlar talablari asosida hisoblansin.
Kapital qo'yilmalarning muljallanayotgan hajmi va moliyalashtirish manbalari	Moliyalashtirish manbai: Davlat budjeti mablag'lari hisobidan.
Qurilishni tugatish va quvvatlarni ishga tushurishning muljallanayotgan muddatlari	Loyihalashtirilayotgan ishlar hajmidan va texnologik talablardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.
Qurilishning alohida shart-sharoitlari	Seysmiklik darajasi – QMQ ga binoan qabul qilinadi.
Standartlarga rioya qilish talablari	SHNQ 2.07.01-03 "Shaharsozlik"; SHNQ 2.05.02-07 "Avtomobil yo'llari"
Topshirish – qabul qilish tartibi	Ishchi loyiha ushbu texnik topshiriq talablariga binoan qabul qilinadi. Smeta hujjatlari qurilish materiallari va mashina-mexanizimlar hamda material-texnik resurslar narxining "Buyurtmachi" tomonidan tasdiqlangan "Kelishuv bayonnomasi" ga asosan hisoblab chiqilishi lozim. Ishchi loyiha 3 nusxada va amaldagi standartlar bo'yicha rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

Navoiy viloyati hokimligi
"Yagona buyurtmachi xizmati" IK bo'limi boshlig'i



S.Rajabov